

YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR VA XALQARO HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI

Nurxonov Muhammadi Nabi o'g'li

Termiz davlat universiteti akademik litseyi tarix fani bosh o'qituvchisi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Tel: +998915893225

ANNOTATSIYA

Yangi O'zbekiston oliy ta'lismida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada oliy ta'lismuassasalarining soni va sifati, ta'lim dasturlarining yangilanishi, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik, qo'shma ta'lim dasturlari va akademik mobililik kabi jihatlar tahlil qilinadi. Xalqaro hamkorlikning kengayishi orqali O'zbekiston oliy ta'limi global ta'limga integratsiyalashmoqda.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, oliy ta'lim, islohotlar, xalqaro hamkorlik, qo'shma dasturlar, akademik mobililik.

АННОТАЦИЯ

В системе высшего образования Нового Узбекистана осуществляются коренные реформы. В данной статье рассматриваются такие аспекты, как количественный и качественный рост высших учебных заведений, обновление учебных программ, сотрудничество с зарубежными университетами, совместные образовательные программы и академическая мобильность. Расширение международного сотрудничества способствует интеграции высшего образования Узбекистана в глобальное образовательное пространство.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, высшее образование, реформы, международное сотрудничество, совместные программы, академическая мобильность.

ABSTRACT

Fundamental reforms are being implemented in the higher education system of New Uzbekistan. This article examines aspects such as the quantitative and qualitative growth of higher education institutions, curriculum renewal, cooperation with foreign universities, joint educational programs, and academic mobility. The expansion of international cooperation is facilitating the integration of Uzbekistan's higher education into the global education arena.

Keywords: New Uzbekistan, higher education, reforms, international cooperation, joint programs, academic mobility.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilar ekan, inson kapitalini rivojlantirish, sifatli ta’lim olishda barcha uchun teng sharoitlar yaratish, ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy rivojlanish modelini shakllantirish yo‘lida muhim yutuqlarga erishmoqda. Raqobatbardosh va innovatsion iqtisodiyotni barpo etish uchun esa yosh avlodda mehnat bozori uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish lozim [1:36].

Globalizatsiya sharoitida esa yoshlarning erkin harakatlanishini ta’minlash hamda oliy ta’lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan bo‘lib qolmoqda. Buning uchun, bir tomondan, ta’lim sifati va ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish tizimini takomillashtirish zarur bo‘lsa, boshqa tomondan, talabalar, professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilarning akademik mobilligini kengaytirish, ularni xorijiy ta’limni tan olish bo‘yicha xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘shish zarur.

Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarining roli tubdan o‘zgarib bormoqda: ular to‘rt yillik yopiq ta’lim tizimidan ochiq, hamkorlikka asoslangan, insonni ijtimoiylashtirishga, unda zarur ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tizimga o‘tmoqda. Bu esa barqaror taraqqiyotga xizmat qilmoqda [1:36].

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolarning sifatli ta’lim olish huquqi esa Respublikamiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan. Oliy ta’limga bo‘lgan ehtiyoj har doim ham u beradigan istiqbollar bilan o‘zini oqlaydi. Diplomga ega mutaxassislar, odatda, muvaffaqiyatli ishga joylashish imkoniyatlariga ko‘proq ega bo‘ladi. Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari yoshlarga qulay ta’lim olish sharoitlarini yaratish borasidagi sa’y-harakatlarini faollashtirmoqda. Ushbu ishlar doirasida moddiy-texnik bazani yangilash, ilg‘or ta’lim metodikalarini joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi yo‘nalishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim jarayoni ilg‘or xorijiy ta’lim muassasalari tajribasi asosida intensivlashtirilmoqda. Shu bilan birga yangi o‘quv dasturlar ishlab chiqilmoqda [2: 478].

Oliy ta’lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida O‘zbekistonda muhim institutsional o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ma’muriy islohotlar doirasida va oliy ta’lim hamda ilmiy-innovatsion faoliyatni integratsiyalash maqsadida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga aylantirildi. Bugungi kunda ushbu vazirlik huzurida Oliy ta’lim rivojlanishini tadqiq qilish markazi faoliyat yuritmoqda. Markaz malaka talablari va o‘quv dasturlarini tahlil qiladi, ushbu yo‘nalishda ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganadi [3].

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, bugungi kunning o'zi jamiyat hayotining barcha sohalari, jumladan, ta'lif va fan sohasini yangi bosqichga olib chiqishni talab etmoqda. Shu asosda so'nggi yillarda Prezident va hukumat tomonidan innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda oliy ta'lif muassasalari salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Davlat rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalarni jumladan, xalqaro aloqalarni kengaytirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Iqtisodiyot, raqamlashtirish va milliy ishlanmalarni integratsiyalash sohasidagi yirik loyihalarning amalga oshirilishi respublikaning jahon miqyosidagi imidjini mustahkamlash, xalq farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi yuqori salohiyat va katta resurslarni talab etadi.

2019-yilda "O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha oliy ta'lif tizimini rivojlantirish konsepsiysi" qabul qilindi. Ushbu hujjat oliy ta'lif sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va respublika OTMlарini xalqaro reytinglarga (QS, THE, ARWU) kiritish bo'yicha asosiy yo'naliishlarni belgilab berdi. Mazkur konsepsiya strategik dastur bo'lib, sohani rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlab berdi. Sistematiq choralar natijasida ikki oliy ta'lif muassasasi – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilk bor dunyoning eng yaxshi 1000 universiteti reytingiga kirdi.

Islohotlar doirasida ilg'or standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2020-yildan boshlab mamlakatdagi barcha OTMlar bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tmoqda. Bu esa ta'lif dasturlarining moslashuvchanligini ta'minlab, talabalar uchun kengroq imkoniyatlar yaratadi. O'z navbatida KMT (kredit-modul tizimi)ni joriy etish ikki diplomli ta'lif (Double Degree) amaliyotining kengayishiga olib keldi, bu esa talabaga O'zbekiston va xorijiy hamkor universitet diplomlarini olish imkonini beradi [2: 478].

Soha yutuqlaridan biri sifatida oliy ta'lif bilan qamrovning ortganini qayd etish mumkin. 2023-yilda bu ko'rsatkich 42 foizga yetdi, bu esa 2016-yildagi 9 foizga nisbatan deyarli 5 barobar ko'p. Bugungi kunda oliy ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 1,3 millionga yetdi. OTMlar soni ham 2016-yildagi 77 tadan 2023-yilda 213 taga yetdi. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2021-yildan boshlab davlat OTMlariiga kunduzgi ta'lif shakli bo'yicha eng yuqori ball to'plagan 200 abituriyent uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti joriy etildi.

Muhim yangiliklardan yana biri – oliy ta'lif muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilmoqda. Konstitutsiyaning 51-moddasida OTMlarning

akademik erkinligi, o‘zini o‘zi boshqarish, ilmiy-tadqiqot va o‘qitish erkinligi qonun bilan kafolatlangan. Bugungi kunda 40 ta OTMga akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ushbu ro‘yxatni Respublika oliy ta’lim kengashi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda kengaytirish huquqi berilgan. Akademik va moliyaviy mustaqillik OTMlarga o‘quv rejalarini va dasturlarini, malaka talablarini tasdiqlash, o‘qish muddati va narxini belgilash, sirtqi, masofaviy va kechki ta’lim shakllarini joriy etish, akademik mobillikni amalga oshirish, yangi yo‘nalishlar ochish va eskilarini yopish kabi masalalarni hal qilish imkonini beradi. Bu choralar davlat tomonidan boshqaruvning markazlashtirilgan shaklini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar integratsiyasini ta’minlash ham zamonaviy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biridir. Mamlakat OTMlarida “Universitet 3.0” konsepsiysi joriy etilmoqda. Bu esa ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy izlanishlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlaydi. Natijada, oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati 40 foizga yetdi, Scopus va Web of Science bazalaridagi maqolalar soni 3574 taga yetdi. 2023-yil yakunlariga ko‘ra OTM va ilmiy tashkilotlar tomonidan tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish hajmi 270 milliard so‘mdan oshdi, 17 ta spinoff kompaniyalar tashkil etildi.

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish doimiy takomillashtirishni talab qiladi. Shu bois bozor ehtiyojlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim rivojlanishining zamonaviy tendensiylarini inobatga olgan holda quyidagi vazifalarga e’tiborni kuchaytirish lozim: hududlarda oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish; OTMlarni yiriklashtirish va oliy ta’lim yo‘nalishlarini optimallashtirish; ish beruvchilarni bo‘lajak kadrlar bilan ta’lim bosqichidayoq bog‘lash [4: 49].

Bugungi kunda mamlakatdagi barcha OTMlarning deyarli yarmi Toshkent shahrida joylashgan. Ta’lim sifati, tizimi va sharoitlari esa barcha hududlarda bir xil bo‘lishi lozim. Shu bilan birga o‘xshash profildagi OTMlar bazasida milliy yoki davlat universitetlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqligini ham tahlil qilish kerak. Shuningdek, bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ish beruvchilar va mehnat bozori ehtiyojlarini inobatga olgan holda optimallashtirish lozim. Ma’lumot uchun, bugungi kunda O‘zbekistonda bakalavriat yo‘nalishlari soni 195 tani tashkil etadi, Qozog‘istonda – 173 ta, Finlyandiyada – 132 ta, Janubiy Koreyada esa qariyb 100 ta.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi tub islohotlar bosqichiga kirgan bo‘lib, bu soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Oliy ta’limning strategik rivojlanishini belgilovchi asosiy hujjatlar — Prezident va Hukumat tomonidan qabul qilingan konsepsiylar, normativ-huquqiy hujjatlar,

xususan, 2030-yilgacha bo‘lgan Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiysi, muhim yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu islohotlarning markazida ta’lim sifati, xalqaro reytinglarda ishtirok, ilm-fan va innovatsiyalarni integratsiyalash hamda oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish masalalari turadi.

Keyingi yillarda ta’lim qamrovi besh baravarga organi, oliy ta’lim muassasalari sonining keskin oshgani va “Universitet 3.0” konsepsiyasining joriy etilishi — sohada yuksalish borayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xalqaro hamkorlikning kengayishi, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish, kredit-modul tizimi va “double degree” dasturlari orqali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash imkoniyatlari yaratilmoqda [5: 52].

Shu bilan birga, tahlillar oliy ta’limning hududiy muvozanatini ta’minlash, bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarini optimallashtirish, ish beruvchilar bilan integratsiyani kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bozor talablari asosida zamonaviy, intellektual salohiyatga ega, o‘z kasbining yetuk mutaxassislarini yetishtirish — “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyotining asosi sifatida qaralmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar kadrlar raqobatbardoshligini va milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Yangi tarmoqlar yaratilishi va aholining yashash darajasining oshishi davlat oldiga jiddiy vazifani qo‘ymoqda: zamonaviy texnologiyalarni tezda o‘zlashtira oladigan, yuqori intellektual salohiyat va ilg‘or kompetensiyalarga ega, yuqori saviyali, intizomli mutaxassislarni muntazam yetishtirib beradigan ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish. Chunki faqatgina zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislargina Yangi O‘zbekistonni barpo etish davrida strategik maqsadlarga erisha oladilar.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abdukarimova G.B. Zamonaviy globallashuv bosqichining ilmiy-falsafiy tahlili. “Fan, ta’lim va madaniyat” jurnali, 2019-yil, № 4 (38), 36–37-betlar.
2. Muminov A.G. O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar: holati va istiqbollari // “Fan va amaliyot axborotnomasi”, 2019-yil, Jild 5, № 9, 478–483-betlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yil 8-oktabr, № PF-5847.
4. Umarova D.Z. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimidagi innovatsion islohotlar // “Fan va ta’lim masalalari” jurnali, 2018-yil, № 2 (14), 47–49-betlar.
5. Xakimjonova X.X. O‘zbekistondagi innovatsion ta’lim islohotlari // “Fan va ta’lim yutuqlari” jurnali, 2019-yil, № 3 (44), 52–54-betlar.